
TEST VARIANTI RAQAMI: **1952900**

TARIX

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!



1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan?

A) *31-modda* B) *18-modda* C) *76-modda*
D) *24-modda*

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan bir yilda qabul qilingan qonunlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) "O‘zbekiston Respublikasi Prezident saylovi to‘g‘risida"gi; 2) "Ta’lim to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi qonun; 3) "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida"gi; 4) "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi

A) *2, 3* B) *2, 4* C) *1, 3* D) *1, 4*

3. To‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni toping.

A) *1916-yilda Somma jangi bo‘lib o‘tdi.*

B) *1914-yilda Ipr jangida Germaniya xlor gazini qurol sifatida ishlatdi.*

C) *1915-yilda Marna daryosi bo‘yida jang bo‘lib o‘tdi.*

D) *1918-yilda tarixga "Nivel qirg‘ini" degan nom bilan kirgan qirg‘in yuz berdi.*

4. Qoraqalpoqlarning Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘oloni qaysi Xiva xoni davrida yuz bergan?

A) *Eltuzarxon* B) *Olloqulixon*
C) *Rahimqulixon*
D) *Muhammad Rahimxon I*

5. Vena kongressiga ko‘ra, 200 dan ortiq mayda davlatlarga bo‘linib ketgan Germaniya o‘rnida 39 davlatdan iborat Germaniya ittifoqi tuzilib bu ittifoqda ... yetakchilik roli e’tirof etilgan.

A) *Vestfaliyaning* B) *Reynning*
C) *Avstriyaning* D) *Prussiyaning*

6. 1279-yilda bo‘lib o‘tgan voqeani toping.

A) *Hindistonda Sayyidlar sulolasining hukmronligi boshlandi*

B) *Arab xalifaligi hukmronligi tugadi*

C) *Yaponiyada Mikado boshqaruvi joriy etildi*

D) *Xitoyda Yuan sulolasi hukmronligi boshlandi*

7. Shaharlarning shitob bilan rivojlanishi Germaniyada qachon avj olgan?

A) *XIX asrning 70-yillarida*

B) *XVIII asrning 80-yillarida*

C) *XIX asrning 50-yillarida*

D) *XVIII asrning 60-yillarida*

© Davlat test markazi, 2019

8. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan davlat hududida XIX asr oxirida tashkil etilgan tashkilotni aniqlang.



A) *Mujohidlar tashkiloti*

B) *"Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tashkiloti*

C) *"Tinchlik va adolat uchun ko‘tarilgan musht" yashirin tashkiloti*

D) *"Birlik va taraqqiyot" tashkiloti*

9. Quyidagi voqealardan Arab xalifaligida Muoviya I hukmronlik qilgan yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tganlarini toping.
1) Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro hududiga bostirib kirdi;
2) arablarning Maymurg‘ga ilk hujumlari amalga oshirildi; 3) Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arablar Movarounnahrni zabt etishga kirishdi; 4) arablarning Chag‘oniyonga ilk hujumlari amalga oshirildi

A) *1, 4* B) *2, 4* C) *2, 3* D) *1, 3*

10. Doro I davrida Fors podsholigi qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?

A) *Ekbatana* B) *Suza* C) *Nineviya*
D) *Persopol*

11. Quyidagilardan XIX asrning ikkinchi yarmida bo‘lib o‘tgan voqeani belgilang.

A) *Rossiya imperiyasi tomonidan Sirdaryoning Orolga quyilish joyida Raim qal’asi bunyod etildi.*

B) *V.Perovskiy boshchiligidagi qo‘shin Xiva xonligigacha yetib borolmay orqaga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.*

C) *Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil qilindi.*

D) *Buyuk Britaniya tomonidan kapitan J.Abbot Xiva va Buxoroga yuborildi.*

12. Rossiyaning Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo‘lishi (a) va Qora dengiz bo‘yida harbiy flot qurish huquqini qo‘lga kiritishi (b) qaysi hukmdorlar davriga to‘g‘ri keladi?
1) Ivan IV; 2) Pyotr I; 3) Yekaterina II;
4) Aleksandr II

A) *a-1, b-4* B) *a-1, b-3* C) *a-2, b-4*
D) *a-2, b-3*

13. Quyidagi voqealardan qaysilari bronza davriga to‘g‘ri keladi?
1) Mesopotamiyada shumer manzilgohlari vujudga kela boshladi; 2) Sargon I Akkad va Shumer shaharlarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirdi; 3) Bobil podsholigi Mesopotamiya janubidagi eng yirik davlatga aylandi;
4) Xuanxe daryosining o‘rta oqimida Xitoy hududidagi ilk davlat paydo bo‘ldi; 5) O‘rta Osiyo aholisi to‘rtta guruhga: kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlarga bo‘lindi;
6) Misrda odamlar Nil daryosi qirg‘oqlaridagi yerlarni o‘zlashtira boshladilar

A) *1, 2, 5* B) *2, 3, 4* C) *1, 2, 6* D) *2, 3, 5*

14. XIX asr o‘rtalarida quyidagi qaysi mamlakatda tabaqaviy imtiyozlar tugatilib, birinchi o‘ringa insonning qaysi tabaqaga mansubligi emas, shaxsning erkinligi, qobiliyati, mustaqilligi, individualligi qo‘yildi?

A) *Germaniyada* B) *Buyuk Britaniyada*
C) *Rossiyada* D) *Fransiyada*

15. Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yilda qaysi hukmdor qo‘shinlarini mag‘lub etib Samarqand taxtini egallagan?

A) *Boysung‘ir Mirzo*
B) *Muhammad Shayboniyxon*
C) *Xusravshoh* D) *Sulton Ali Mirzo*

© Davlat test markazi, 2019

16. Yaponiya Millatlar Ligasidan chiqqan (a), Turkiya Millatlar Ligasiga kirgan (b) yillar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) 1931-yil; 2) 1932-yil; 3) 1933-yil; 4) 1936-yil
A) *a-3, b-2* B) *a-1, b-4* C) *a-2, b-4*
D) *a-1, b-2*

17. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati davrida qabul qilingan Nizomlar asosida amalga oshirilgan ishlari mos ravishda berilgan javobni aniqlang.
1) 1867-yilgi "Nizom loyihasi" bo‘yicha;
2) yangi 1886-yilgi "Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom" bo‘yicha.
a) muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari tuzildi; b) uyezd sudlari bekor qilindi;
c) general-gubernatorlik Devonining sudlov bo‘limi tashkil etildi; d) sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi lavozimlari joriy etildi; e) Turkiston viloyatinini boshqarish bo‘yicha harbiy mahkama joriy etildi.
A) *1-a, c, 2-d, e* B) *1-a, b, 2-c, d*
C) *1-a, d, 2-b, e* D) *1-a, c, 2-b, d*

18. XX asr boshida bo‘lib o‘tgan Eron inqilobi davrida mamlakatni boshqargan hukmdorlarni belgilang.
1) Abdulhamid II; 2) Omonullaxon;
3) Muzaffariddin; 4) Muhammad Alishoh;
5) Sheralixon; 6) Ahmadshoh.
A) *1, 3, 5* B) *2, 4, 6* C) *1, 2, 5* D) *3, 4, 6*

19. O‘rta asrlarda Xitoyda Marko Polo va Chjan Xe qaysi sulolalar davrida faoliyat olib borgan?
A) *Tan va Min* B) *Yuan va Min*
C) *Tan va Sun* D) *Sun va Yuan*

20. 1405-yil 18-martda o‘zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e’lon qilgan Xalil Sulton Mirzo kimning farzandi edi?
A) *Mironshohning* B) *Shohruxning*
C) *Umarshayxning* D) *Pirmuhammadning*

21. 1932-yilda AQSHda prezidentlik saylovida g‘alaba qozongan shaxsni belgilang.
A) *G.Guver* B) *D.Eyzenxauer* C) *V.Vilson*
D) *F.Ruzvelt*

22. 1572-yilda chizilgan quyidagi miniatyurada tasvirlangan, 1556-1598-yillarda hukmronlik qilgan hukmdorni aniqlang.



A) *Abdullaxon II* B) *Amir Temur*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
D) *Husayn Boyqaro*

23. Turor Risqulov nechanchi yilda o‘lka Musulmonlar byurosi (Musbyuro) raisi bo‘lgan?
A) *1922-yilda* B) *1923-yilda* C) *1919-yilda*
D) *1920-yilda*

24. Quyidagi voqealar sodir bo‘lgan yillari bilan mos ravishda berilgan javobni belgilang.
1) Xurosonda Abul Abbos Abdullohning noibligi boshlandi; 2) Somoniy Nuh ibn Nasr Abu Ali Chag‘oniyni Chag‘oniyonga hokim etib tayinladi; 3) Chig‘atoy Ma’sudbekni Movarounnahr noibi etib tayinladi; 4) Nasr ibn Sayyor Xuroson noibi etib tayinlandi;
a) 738-yil; b) 750-yil; c) 830-yil; d) 947-yil;
e) 952-yil; f) 1238-yil
A) *1-d, 2-c, 3-f, 4-b* B) *1-c, 2-e, 3-f, 4-a*
C) *1-d, 2-e, 3-f, 4-a* D) *1-c, 2-d, 3-f, 4-b*

25. O‘rta asrlarda Angliyada hukmronlik qilgan qirollarni boshqaruv davri boshlanishiga qarab to‘g‘ri xronologik tartibda berilgan javobni toping.
1) Ioann; 2) Genrix II; 3) Vilgelm I; 4) Garold
A) *4, 1, 2, 3* B) *4, 3, 1, 2* C) *4, 1, 3, 2*
D) *4, 3, 2, 1*

26. Quyidagilardan mil.avv. VI asrda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonni toping.
A) *Lyu Ban boshchiligidagi qo‘zg‘olon*
B) *Frada boshchiligidagi qo‘zg‘olon*
C) *Spartak boshchiligidagi qo‘zg‘olon*
D) *“Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni*

© Davlat test markazi, 2019

27. Rossiya qaysi hukmdor davrida Turkiya bilan Kuchukqaynarji shartnomasini imzolagan?

A) *Yekaterina II* B) *Aleksandr I*
C) *Nikolay I* D) *Nikolay II*

28. Tarixga "Afrika yili" sifatida kirgan yilni toping.

A) *1960-yil* B) *1970-yil* C) *1955-yil*
D) *1949-yil*

29. Xiva xonligida kimning hukmronligi davrida podsho Rossiyasi N.Muravyov rahbarligida maxsus ekspeditsiya yuborgan?

A) *Muhammad Rahimxon I* B) *Olloqulixon*
C) *Eltuzarxon* D) *Rahimqulixon*

30. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar mos ravishda berilgan?

№	Hukmdor	Voqea	Yil
1.	Rossiya imperatori Nikolay I	Toshkent shahri Rossiya qo‘shinlari tomonidan bosib olindi	1865
2.	Buxoro amiri Shohmurod	Afg‘onlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Amudaryoning janubiy qirg‘og‘idagi o‘zbeklarga amaliy yordam ko‘rsatdi	1789
3.	Xiva xoni Eltuzarxon	Buxorodan O‘rozboy Jo‘ra va Avaz Murod yasovulboshi boshchiligida elchilar keldi	1811-1812
4.	Qo‘qon xoni Sheralixon	O‘sh xalqi soliqlarning haddan tashqari og‘irligidan norozi bo‘lib qo‘zg‘olon ko‘tardi	1845
5.	Angliya qiroli Karl I	Mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi	1646
6.	Fransiya imperatori Napoleon I	Fransiya Rossiya bilan Tilzit shartnomasini imzoladi	1807

A) *1, 4, 5*

B) *2, 4, 6*

C) *2, 3, 6*

D) *1, 3, 5*

Test varianti "Test topshiriqlari to‘plami 2019" asosida shakllantirilgan:

1 – 49-bet 5	7 – 78-bet 40	13 – 18-bet 95	19 – 57-bet 32	25 – 61-bet 74
2 – 51-bet 34	8 – 108-bet 38	14 – 76-bet 10	20 – 21-bet 27	26 – 10-bet 39
3 – 84-bet 96	9 – 21-bet 29	15 – 36-bet 54	21 – 92-bet 10	27 – 67-bet 38
4 – 33-bet 21	10 – 11-bet 54	16 – 96-bet 63	22 – 111-bet 8	28 – 93-bet 31
5 – 68-bet 46	11 – 45-bet 55	17 – 46-bet 59	23 – 48-bet 23	29 – 37-bet 72
6 – 54-bet 8	12 – 71-bet 67	18 – 86-bet 113	24 – 28-bet 87	30 – 125-bet 31

© Davlat test markazi, 2019